

LINGVOPOETIKANING O'RGANILISH TARIXI

Isaqov Zokirjon Soliyevich

Qo'qonDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvopoetika tushunchasi va uning paydo bo'lish tarixi hamda ifodalanish xususiyatlari ilmiy tushunchalar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. lingvopoetika, lingvistik aspekt, stilistik aspekt, ekspressivlik.

Аннотация: В данной статье понятие лингвопоэтики, история ее возникновения и особенности выражения объясняются через научные понятия.

Ключевые слова: лингвопоэтика, языковой аспект, стилистический аспект, выразительность, художественность.

Abstract. In this article, the concept of linguopoetics, the history of its emergence and the features of expression are explained through scientific concepts.

Key words: linguopoetics, linguistic aspect, stylistic aspect, expressiveness.

Badiiy asarni lingvopoetik jihatdan o'rganish masalasini rus tilshunoslari boshlab bergan. Lingvopoetikaning yangi soha sifatida shakllanishida ularning xizmatlarini aytib o'tish lozim. V. V. Vinogradov,

A.A.Lipgart, B.V. Jirmunskiy, V. Y. Zadarnova, O .S .Axmaova, L .V .Sherba va boshqalar lingvopoetikani alohida fan sifatida filologiya ilmida o'rganilishi yuzasidan qarashlarini ifodalab berganlar.

Badiiy asar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda ham qo'llanadi. Ammo shuni aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" filologik adabiyotlarda nisbatan ko'proq ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylilik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umulashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi keng.

V. A. Avrorin tomonidan qayd etilgan tilning bir qator vazifalari (kommunikativ, ekspressiv, konstruktiv, okkumlyativ) inkor etilmagan holda, estetik vazifaga alohida urg'u beradi.

Ma'lumki, badiiy asar tilini o'rganishda keng tarqalgan ikki asosiy yo'nalish bor. Ular:

1. Lingvistik aspekt.

2. Stilistik aspekt.

Tilning estetik vazifasi aynan shu guruhdagi stilistik aspektda tahlil qilinadi. Tilning estetik vazifasi aniq holatda badiiy asar matnida o'z ifodasini topadi. Shu bois asar matnini tadqiq qilishda adabiyotshunoslik mazmuni ifodalovchi u yoki bu lisoniy vositalarni ko'rsatib berishga yo'l ochadi, deb ta'kidlaydi.¹

Rus tilshunosligida A.Peshkovskiy ham badiiy asar tilini o'rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borib, "ijodkor o'z xususiy uslubiga o'zgaralar uslubini tushinishi, uqishi orqali ega bo'ladi", deb yozadi.² Bu o'rinda olimning fikrlari o'rinli va bir oz mushohadali hamdir. To'g'ri, uslubdagi o'ziga xosliklar uni o'zgaralar uslubiga qiyoslaganda ko'rinadi, lekin bu ijodkor o'z uslubini boshqalar uslubiga qarab topadi, degani emas. Bizningcha, har bir yozuvchining o'z uslubi bo'lib, u o'z imkoni darajasida foydalangan holda fikrni bayon etib, pirovardida til vositalarining ma'lum qurilmasini hosil qiladi.

V.V.Vinogradovning badiiy asar tilini o'rganish bo'yicha izlanishlari bu borada ko'p masalalarga tilshunoslik va adabiyotshunoslik tomonidan emas, balki umumfilologik nazar bilan qarash, tadqiq etish lozimligini ilgari surib "badiiy adabiyot tilini o'rganish filologiya fanining asosiy xususiyatlarini belgilab berar ekan, undan tilshunoslik ham, adabiyotshunoslik ham har tomonlama nazariy va amaliy naf oladi"³, degan fikrni isbotlashga xarakat qildi. Shu bilan birga akademik V. V. Vinogradov "badiiy adabiy til haqidagi fan tilshunoslikka ham, adabiyotshunoslikka ham yaqin turadi, lekin ularning har ikkalasidan ham farqlanadi", deya bu yo'nalishning o'ziga xosligini e'tirof etgan.

Lingvopoetika bo'yicha rus tilshunosligida XX birinchi yarmidan boshlab yaratila boshlagan quyidagi ilmiy asarlar yo'nalishning mohiyati va chegarasini belgilab beradi. Xususan, A.Xolodovichning "Adabiy til uslubshunosligi", "Poetika lisoniy usul" haqida, M.B.Xrapchenkning poetika, uslubshunoslik va adabiyotshunoslik nazariyasining o'zaro munosabatlari haqidagi qarashlari, R.Yakobsonning lingvistika va poetika yoki E.Stankevichning lingvistika va poetika borasidagi tushunchalari, O.S.Axmanova va boshqalarning lingvoslubshunoslik metod va tamoyillari tahlili, Y.Tinyanovning she'riy til muammosi, E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalari, M.V.Panovning rus tili poetik tilining rad etilishi to'g'risidagi fikrlar, P.N.Medvedovning poetik tilning rad etilishi to'g'risidagi fikrlari, E.B.Artemenkoning lingvofolkrologiya bo'yicha olib borgan qarashlari, fransuz tilshunoslari D.Del va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha qo'llanma yaratishlari, Y.Stepanovning bir millatga mansub uslubshunoslik bilan qiyoslashda lingvopoetikaning xususiyatlarini aniqlash xususidagi

¹ Shcherba.L.V. Izbrannie rabot po ruskomu yaziki. M.1957.s-97.

² Peshkovskiy A. Vopros metodika rodnogu yazika lingvistiki i stilistiki. M. 1930 s-57-58.

³ Vinogradov. V.V Problem ruskoy stilistiki. M.Nauka, 1981. S-186.

bayonlari, A. V. Fyodorovning umumiy va qiyosiy tilshunoslikka oid tadqiqotlari kabi ishlarda bularning dastlab chiqargan g'oyalari qarama-qarshi bo'lgan. Shunga qaramasdan, lingvopoetika ta'rifida differensial yondashuvlar integrativ yondashuvlarga ham olib kelib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi farqlarning tamoman yo'qotilishi N. I. Konrad tomonidan alohida e'tirof etilgan.⁴

Zamonaviy o'zbek filologiyasida XX asrning birinchi yarmida badiiy asar tilini ilmiy asosda o'rganishning boshlanishi ikki ulkan alloma – adabiyotshunos va adib Izzat Sulton⁵ hamda tilshunos Ayyub G'ulom⁶ nomlari bilan bog'liq.

Shuningdek, ularning badiiy tilni o'rganishning adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy asoslari, tamoyillarini ko'rsatib berishga harakat qilganliklarini ham aytib o'tadi.

Akademik Sh. Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostonining til xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi⁷ ham badiiy til muammolarini o'rganish borasidagi jiddiy ishlardan biri xisoblanadi.

Tilshunos olim G'. Abdurahmonovning “adabiy asar tilini o'rganish haqida”⁸ nomli maqolasida badiiy asar tilini o'rganishning o'ziga xos yo'llarini ko'rsatib bergan.

Badiiy asar tilini o'rganish yuzasidan, xususan, o'zbek tilshunosligida ham katta yutuqlarga erishgan. Bunda H. Doniyorov va B. Yo'ldoshevlarning “adabiy til va badiiy stil” nomli kitobi izlanishlar samarasi o'laroq bu sohani o'rganishda ma'lum asos bo'la oladi.

Keyingi yillarda ham o'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili masalalariga katta e'tibor berilib, sohaning yangi-yangi qirralarini o'rganilmoqda. Xususan, N. Normurodovning “Shukur Xolmirzayevning badiiy til mahorati” nomli kitobi, M. Yo'ldoshevning “Badiiy lisoniy tahlili” o'quv qo'llanmalari bu boradagi keng qamrovli salmoqli ishlar sifatida maydonga keldi, deyish mumkin.

Badiiy asar tili imkoniyatlarini namoyan etar ekan, u “o'tmish hayoti bilan bog'liq bo'lib, har bir milliy adabiy tilning taraqqiyot qonuniyalarini belgilab beradi va uning til tizimini, til qurilishi darajasini o'rganishga imkoniyat yaratadi”⁹.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida H. Doniyorov, S. Mirzayev, B. Yo'ldoshev, H. Samadov, I. Qo'chqortoyev, H. Abdurahmonov, I. Mirzayev, N. Mahmudov, B. Umrqulov, M. Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.¹⁰

⁴ Konrad N.I. Problem sovremennoy filologiy. M. Nauka.1965/

⁵ Sultonov I. Badiiy asarning tili /O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1939.N-5.

⁶ G'ulomov A. Badiiy adabiyotning tili haqida /Adabiyot va san'at. 1941.N-1.

⁷ Shoabdurahmonov Sh. “Ravshan” Avtoreferat diss. Toshkent 1949.

⁸ Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida /O'zbek tilini o'qitish metodikasi masalalari.Toshkent.Fan, 1966.4-11 b

⁹ Normurodov R. Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati.Toshkent,2003,96-b.

¹⁰ Doniyorov K.Mirzayev S. Soz san'ati.O'zhdadabiynashr.1962;.

Shuni aytish lozimki, ma'lum bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati va yozuvchining u yoki bu sath birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklari borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu hol badiiy asar lingvistik xususiyatlariga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy – estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtai nazaridan tekshirdilar.

Ayniqsa, M. Yo'ldoshev tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishi bu boradagi ishlarni yana bir bor marta yuqoriga ko'tardi. Olim badiiy matn lingvopoetik tahlil etishining yetti tamoyilini shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy-estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnga poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matnda intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqdi. Badiiy asar tilini o'rganish yuzasidan, xususan, o'zbek tilshunosligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda H.Doniyorov va B.Yo'loshevlarning "Adabiy til va badiiy stil" nomli kitobi izlanishlar samarasi o'laroq bu sohani o'rganishda ma'lum asos bo'la oladi.¹¹

Tilshunos olim E. Qilichev esa "Badiiy tasvirning leksik vositalari" kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar va ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar ustida to'xtalgan. B. Umurqulov "Poetik nutq leksikasi" nomli monografiyasida hozirgi o'zbek she'riyatining tilining leksik manbalari, poetik leksika, an'anaviy poetizmlar, so'z variantlari va ularning estetik qimmatini kabi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Badiiy asar poetikasiga nisbatan lisoniy yondashuvga harakat H. H. Niyoziy, A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, Said Ahmad kabi adiblar ijodi bilan bog'liq.¹²

O'tgan asrning 40- yillaridan boshlab o'zbek filologiyasida ham yozuvchi tili uslubi, badiiy asar tili bo'yicha tilshunoslar ham, adabiyotshunoslar ham baravar tadqiqot olib bora boshladilar. Bu kabi tadqiqotlar, dastlab maqolalar tarzida, keyinroq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida u yoki bu darajada tadqiq etildi. Bu tadqiqot ishlarida badiiy adabiyot tili muammolari borasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, O.Sharafiddiniv, N.Shukurov, S.Mamajonov, N. Karimov, N. Karimov, Y.Solijonov, A. Boboniyozov, G. Imomova, J. Tursunov, N.To'lanovalar badiiy asar tili masalasiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashsalar, Sh.Shoabdurahmonov, S.To'rabekova, A. Shomaqsudov,

¹¹ Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. 26-27 b.

¹² Shomaqsudov A. O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Hamza ijodinig ahamiyati/ Sharq yulduzi, 1954.N-3.

B.Turdialiyev, A.Y.Aliyev, Q.Samadov, S.A.Karimov, R.U.Normurodov, M.Yo'ldoshev kabi olimlar badiiy asarni tilshunoslik aspektida tahlil qiladilar.

Ozbek tilshunosligida lingvopoetika sohasidagi dastlabki ishlar sifatida XX asrning 80- yillarida tadqiq etilgan N. Mahmudovning “Oybek nasridagi o’xshatishlar lingvopoetikasi”¹³ va “A.Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir”¹⁴ nomli ilmiy maqolalari shu soha bilan jiddiy qiziqqan olimlar uchun asos vazifasini bajargan. So’ngra esa lingvopoetika bo’yicha ko’plab ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga kela boshladi. I. K. Mirzayevning “She’riy matnning lingvopoetik talqini muammolari”,¹⁵ shuningdek, U.Rahimovning “Nodira she’riyati lingvopoetikasiga doir”,¹⁶ G.Rixsiyevaning “Lingvopoetik tadqiq asoslari bo’yicha mulohazalar”,¹⁷ D. Xudoyberganov “O’zbek tilidagi o’xshatish konstruksiyalarining semantik va stilistik tahlili”ga doir tadqiqotida, M. Yo’ldoshevning “Cho’lponning badiiy til mahorati”¹⁸ga bag’ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida, N. Husanovning “XV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik – semantik va uslubiy xususiyatlariga doir”¹⁹ kitobida badiiy tili lingvopoetik jihatdan u yoki bu darajada tahlilga tortilgan.

Lingvopoetikani yaxlit bir butunlikda tahlil etish va badiiy asarning lingvistik xususiyatlarini chuqur va puxta o’rganish ushbu soha mohiyatini to’liq anglash va tasavvur qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I. A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug’. –Toshkent: O’zbekiston, 1998.
1. Abdurahmonov G’., Mamajonov S. O’zbek tili va adabiyoti. –T.: O’zbekiston, 2003. – 351b.
2. Abdurahmonov G’., Shukurov Sh. O’zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O’qituvchi, 1973. – 320 b.
3. Aliyev A.Yu. O’zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O’zbekiston, 1996. – 118 b.
4. Berdiyorov H., Rasulov R. O’zbek tilining paremiologik lug’ati. –T.: O’qituvchi, 1984. – 158 b.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O’zbekiston, 2002. – 558 b.
6. Fitrat A. Adabiyot qoidalari –T.: O’qituvchi, 1995. – 109 b.
7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. –T.: O’qituvchi, 1985. – 144 b.

¹³ Mahmudov N. Oybek nasridagi o’xshatishlarning lingvopoetikasi/ O’zbek tili va adabiyoti. 1985.N-6. 48-50 b.

¹⁴ Mahmudov N. Abdulla Qahhor Hikoyalarining lingvopoetikasiga doir/ O’zbek tili va adabiyoti. 1987.N-4. 34-b.

¹⁵ Mizayev I.K.Avtoreferat diss. Toshkent, 1992.50-b.

¹⁶ Rahimov U.E. O’zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi.Avtoreferat.Samarqand. 1994. 20-b.

¹⁷ Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo’yicha mulohazalar/ O’zbek tili va adabiyot.2003.N-2. 84-86 b.

¹⁸ Yo’ldoshev M.Cho’lponning badiiy til mahorati. Toshkent. 2000.142-b.

¹⁹ Husanov N. XV asr O’zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Toshkent.1997. 134-b.

8. Hojiyev A. Fe'l. –T.: Fan, 1973. – 191 b.
9. Hojiyev A. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati. T.: “O`qituvchi”, 1974y, 308 b.
10. Umarova, N. R., & Isog, S. Y. ali qizi. (2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE. Учредители Теоретическая и прикладная наука (9), 701-704.
11. Oripova, K. (2021). Til va madaniyatning uzviy aloqadorligi.
12. Otabek, B., Shaxnoza, N., Umida, M., Dilsuz, H., & Hilola, M. (2022). Formation Of Religious Style In Linguistics. Journal of Positive School Psychology, 118-124.
13. Editor Journals and Conferences. (2021, June 7). COMPARATIVE ANALYSIS OF ALLUSIONS IN TWO LANGUAGES (UZBEK AND ENGLISH). <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HEAYD>
14. Dilso, X. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF ALLUSIONS IN TWO LANGUAGES (UZBEK AND ENGLISH). Academia Globe: Inderscience Research, 2(6), 1-5.
15. Dilsoz, X. (2021). UPGRADING ACTIVITIES AND GAMES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Интернаука, 10(186 часть 2), 85.